

Javohir SATTOROV

OPPOQ ORZULAR

She'rlar

MAJBURIY NUSXA

Qarshi
"Nasaf" nashriyoti
2013

84(50')7-938. opaδ.

OO'K O'z.2

KBK 84(50'zb)-3

S 33

Bolalik, yoshlik davri orzu va intilishlar, beg'uborlik, mo'jizaviy xayolotlar hamda barkamollik faslidir.

Javohir Sattorov ham intiluvchan yoshlarimizdan. Uning she'rlarida bolalarcha beg'uborlik, samimiylik aks etgan bo'lib, bu satrlar sizga ham manzur bo'ladi degan umiddamiz.

2013/238 A 30275	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
------------------------	--

HO 41927
0

S $\frac{4702620202-72}{376 (08) 2013}$ 72-2013

© J. Sattorov, 2013 y.

© «Nasaf» nashriyoti 2013 y.

ISBN 978-9943-18-167-0

VATAN

Onaday azizdir bu buyuk vatan,
Onaday mehribon xo'p suyuq vatan.
Fido qilsa arzir unga jon-u tan,
Vatan yagonadir bittadir vatan.

Buyuk ajdodlarning hoki bu tuproq,
Daholar darsidek qutlug' va qaynoq.
Ne-ne allomalar o'tgan bu zamin,
Tavof qilsa arzir bosgan qadamin.

Buyuklar sevgandek se vaylik uni,
Ardoqlasak arzir uni har kuni.
Onadek azizdir yurtki beqiyos,
Arziydi bir umr etsak biz e'zoz.

ORZU

Nahotki yulduzlar xayolga tolsa,
Nechog'lik xayollar chinakam bo'lsa,
Har ishni biz maqsad deya bilaylik,
Kelajakka umid-la intilaylik.

Inson orzu bilan yashaydi, bilsang,
Albatta yetasan harakat qilsang,
Bilim cho'qqisini egallab, g'olib,
Bo'laylik, hozircha bir ilmi tolib.

Albatta shu niyat abadul qolsin .
Ezgulik ilmini bir esga olsin,
Barchamiz vatanga sodiq qolaylik,
Qutlug' davrimizda yetuk bo'laylik,

Inson orzulari bo'lsin ijobat,
Yurtimiz ilm ziyoga to'lar,
Hayot sinovidan olaylik saboq,
Kelajakka bilim bo'ladi mayoq .

OZODALIK

E'tibor beraylik barchamiz biroz ,
Yer uzra yotmasin xas-xashak, qog'oz.
Tozalikka e'tibor beraylik doim,
Ozodalik qanday yaxshi, qanday soz

Eng ko'rkam fasldir bilsang issiq yoz,
Ko'llarni kuzatsang suzar oppoq go'z.
Bog'larda atirgul gullaydi qiyy'os,
Ozodalik qanday yaxshi, qanday soz.

Ozodadir bizning go'zal yurtimiz,
Poklikka ziyoda bizning mehrimiz.
Tinchliksevar xalqmiz ko'pdir do'stimiz ,
Tenglar ichra tengmiz o'tkir zehnimiz .

Mahalla, ko'cha kuy pokiza bo'lsa ,
Istak shu ona yurt shodlikka to'lsa .
Ozodalikka ham yo'qdir e'tiroz ,
Ozodalik qanday yaxshi, qanday soz .

DO'ST

Do'stingman deb yoningda tursa,
Bu do'st senga bo'lmas begona .
Do'st qalbidan mehr ufursa ,
Shunday do'sting tanho yagona.

Va'da berib ustidan chiqsa ,
Yaxshiliklari senga yuqsa .
Holingni ko'rgan zamon uqsa,
Shunday do'stni arzit zamona.

Yomon kunda sen bilan birga ,
Birga bo'lsa chiqsang tog' qirga.
Sirdosh bo'lsa sendagi sirga ,
Shunday do'stdan tanho, yagona.

Yaxshi inson birla bo'lgin do'st ,
Yordam bergin uchrasa kam -ko'st.
Ilon bo'lib tashlamagin po'st ,
Shunday do'st bo'l tanho, yagona.

INSON

Yomon so'z aytishsa og'riydi diling,
Har bir daqiqada shod o'tsin umring.
Sen shuni bilginki charog'on yo'ling ,
Taqdirga munosib bo'l ulug' inson.

Necha yil yasharsan bu dunyoda sen,
Yaxshilik yo'lida harakat qil chin.
Bu dunyo turguncha turolmas hech kim,
Taqdirga munosib bo'l ulug' inson.

Senga berilgandir ko'pdan ko'p imkon,
O'zingni savobga bag'ishla har on.
Ortingdan yaxshilik qolsinda nishon,
Taqdirga munosib bo'l ulug' inson.

TABIAT

Atrofda esadi mayin shamollar ,
Salobatli boqadi mag'rur tog'lar.
Tarovat beradi ko'm-ko'k o'tloqlar ,
Oh biram maftunkor gulzorlar, bog'lar .

Naqadar o'zgacha go'zal tabiat ,
Maqtovga arziydi qadr, qadriyat .
Demak tabiatdan saboq olamiz ,
Har bir go'zalligi o'zgacha mayoq .

Fasllar ichida ko'rkami bahor,
Insonlar bahorni ko'tar intizor.
Ushbu go'zallikka solaylik nazar,
Go'zalliklar ichra yashnaydi bashar.

QISH

Kecha ko'z edi -ku bugun keldi qish,
Lekin dehqonlarga qolmadi -yu ish.
Ba'zi insonlarga ko'paydi yumush,
Qish g'amini yeyish hali ham tashvish .

Tarnovlar muzlagan, daraxtlar oppoq,
Ko'chalar, dalalar qorga burkangan.
Qorboboning boshidachi oq qalpoq,
Bolalar shu kecha rosa o'ynagan.

Qishda suvlar qotib muzga aylandi,
Bolalar yaxmalak tomon shaylandi.
Chang'ida uchishib juda zavqlandi,
Xursandlikdan ko'ngli biram chog'landi.

Oppoq qorlar yog'ar qish faslida,
O'ynoqlab osmondan tushar aslida.
Bamisoli kumush kapalakdir qor,
Oppoq qish ortidan keladi bahor .

YOMG'IR

Bahor kelganda doim,
Yomg'ir yog'ar shildirab.
Ho'l bo'lmay deb iloyim,
Qochib qolar pildirab.

Qochib chala yomg'irdan,
Qushlar iniga kirar.
Chunki bunga bor sabab,
Nam bo'lmay deb berkinar .

BAHOR

Kunlar isiy boshladi,
Muzlar ham erib bitdi.
Biz kutgan bahor fasli,
Nihoyat kelib yetdi.

Momom, oyim, xolamlar,
Tez kirishdilar ishga.
Topib kelib yalpizlar,
Sumalak pishirishga.

BOTIR ASKAR

Bizlar botir askarmiz,
Har qanday ishga tayyor.
Goh zabardast qaysarmiz,
Yurt qo'riqlaymiz hushyor.

Quyosh bilan turamiz,
Yuramiz bo'lib saf-saf.
Chegarada turamiz,
Yurtni qo'riqlash sharaf.

O'ZBEKISTON

O'zbekiston hur vatan,
Dunyoga mashhur vatan.
Vatanni sevmoq kerak,
Har qadamda da'fatan.

Vatanim o'zbekiston,
Chor atrofi guliston.
Asli -u nurli bo'ston,
Nomi tillarda doston.

O'T O'CHIRUVCHI

Xalqimizning parvari, har on o't o'chiruvchi,
Bu ishdan ketmas nari, hamon o't o'chiruvchi.

G'aflatda hech qolmagan, charchamasdan tolmagan,
Olovdan ham qo'rqmagan, mag'rur o't o'chiruvchi.

Tengi yo'q chaqqonlikda, bir tan-u bir jonlikda,
Kurashar jasurlikda, posbon o't o'chiruvchi.

Texnika rivojlanib, zamonga qiyoslanib,
Yong'in chiqsa o'tlanib, tezkor o't o'chiruvchi.

Manzilga tezroq yetib, xavfni bartaraf etib,
Yana xavf tomon ketib, botir o't o'chiruvchi.

YOZ

Boshladi kunlar isib, yurtimizga keldi yoz,
Quyoshga boqib ko'z qisib, yurtimizga keldi yoz.

Yoz, ta'til, yoshlar shodon, oromgoh izlar obdon,
Cho'mil issiqqa toblan, yurtimizga keldi yoz.

Bog'da gullar rang barang, nur quyoshdan olib rang,
Jazirama cho'lda jang, yurtimizga keldi yoz.

Issiqsevar yurt bu soz, ko'lda suzar o'rdak g'oz,
Tabiat bo'lib hamroz, yurtimizga keldi yoz.

Bolalar xursand hamon, oromgohlarda har yon,
Sportda kuchli chaqqon, yurtimizga keldi yoz.

Polizda qovun-tarvuz, o'zini qilib ko'z ko'z,
Ta'rifingga hech yo'q so'z, yurtimizga keldi yoz.

O'ZBEKISTON BAYROG'I

Hilpirar shamol uzra, O'zbekiston bayrog'i,
Balki jahonda tuhfa O'zbekiston bayrog'i.

Bayroqdagi moviy rang, tovlanib turar qarang,
Hilpirashi rang barang, O'zbekiston bayrog'i.

Yalt-yalt o'n ikki yulduz, oy ramzi nurli kunduz,
Arzigay qilsa ko'z-ko'z, O'zbekiston bayrog'i.

Bayroqda ikki chiziq, qon oqar go'yo jo'shib,
Qudratga qudrat qo'shib, O'zbekiston bayrog'i.

Oq rang go'zallik ramzi, mamlakat quvvat azmi,
Baxshida nasri, nazmi, O'zbekiston bayrog'i.

Navqironlik timsoli, shodimonlik misoli,
Yashil tabiat ramzi, O'zbekiston bayrog'i.

USTOZ

Ustoz bizga ta'lim bergan ulug'zot,
Uning bergan mehri qalbimizda yod.
Ona kabi aziz mo'tabar bizga,
Bir umrlik ta'zim ustozimizga.

Bilmasdik harfni ustoz bo'lmasa,
Olmasdik qalamni ustoz bo'lmasa.
Qorong'iydi olam bo'lmasa ustoz,
Arziysiz bir umr aylasak e'zoz.

Ustozdek ulug' zot loyiq ardoqqa,
Mehrim tabrik qilib tushirdim oqqa.
Ustoz-la beqiyos bu ona diyor,
Shu bois yurtimga baxt va tole yor.

KITOBGA TA'RIF

Udir bebaho boylik ,
Bilimga boy behisob.
O'qib do'st tutinaylik,
Bu kitobdir, bu kitob.

Masal va hikoyalar,
Yozilgandir kitobda.
Esda saqlang bolalar,
Asqotadi hayotda.

Aql-u zakovatlimiz,
Bu kitobni o'qisak.
U bilan biz baxtlimiz,
Varag'ini yirtmasak.

Bo'ling lekin qadrdon,
O'qib hech ham to'ymangiz.
O'qib o'rganib hamon,
Uni tashlab qo'ymangiz.

Ezgulikka tik boqing,
Kitobni o'qing har on.
Barchaga birdek yoqing,
Bo'lmangiz hech ham yomon.

Albatta oling ta'lim,
Bilimga boy kitobdan.
Bo'lsangiz siz muallim,
Buni chiqarmang yoddan.

Bu zaxmatkash kitoblar,
Hikmatli so'zlarga boy.
Ko'pdir sir sinoatlar,
Ochsada guldek chiroy.

She'rlar va g'azallarda,
Bitilgan zo'r satrlar.
Uni yodlab bo'lganda,
Hamma sirini bilar.

Maqol va topishmoqlar,
Juda ham qiziqarli.
O'yinqaroq bolalar,
Shu sizlarga kerakli .

Albatta kitob o'qing ,
Foydasi juda katta .
Qo'ldan kelsa she'r to'qing ,
Bu ham bir mahoratda .

Ma'naviy kitoblarsiz ,
Bilimli bo'lmas edik .
O'qimasak lekin biz ,
Bundayin yurmas edik .

Kitob xazina boylik ,
Xafa qilmang hech uni .
Qilsangiz mehribonlik ,
Bilim berar har kuni .

QUSHCHALAR

Parvoz qiling qushchalar ,
Chiroylisiz bunchalar .
Uchib yuring har doim ,
Eh chiroyli qushchalar .

Tabiatga azalsiz ,
Chiroyli va go'zalsiz .
Sayrab yuringiz har on,
Eh chiroyli qushchalar .

Osmondagi qushchalar ,
Sho'x shodon chunchuqchalar .
Shodliklar sevinchisiz ,
Eh chiroyli qushchalar .

Lek go'zaldir yurtimiz ,
Sizlar bizning do'stimiz .
Zavqlanishar bolalar ,
Eh chiroyli qushchalar .

ZARARLI ODATLAR

Yiroq bo'ling insonlar,
Zararli odatlardan .
Bo'lsin uzoqda jonlar,
Eng yomon illatlardan.

Bunday yomon odatlar,
Zaharlagay insonni .
Tanda ko'payib dardlar,
Faqat buzadi qonni.

Chekish eng yomon odat ,
O'rganib qolmang unga .
Bilsangiz u kasofat ,
Uchramang yomon kunga .

Chekishdan o'pka abgor,
Ilma teshik qiladi,
Shu bois bo'lish hushyor,
Hushyorga baxt kuladi.

O'ZBEKISTON VATANIM

Bo'ldi mustaqil davlat,
Mening o'zbekistonim.
O'ziga xos basavlat,
Nurli bog'-u bo'stonim.

Bu vatan O'zbekiston ,
Unga sodiq har inson .
Osuda yer-u osmon ,
O'zing shavkatim shonim .

Dunyodadir yagona ,
Maqtayman oshiqona .
Yomonlikka begona ,
Yozay sher-u dostonim .

Bizning yurtimizdir bu ,
Yurakda oliy tuyg'u .
Baxti boqiydir mangu ,
Yashnayotgan oshyonim .

Ulug'laymiz doimo ,
Senga qoyildir dunyo .
Ezguliklar to'tiyo ,
Erishgan sharaf shonim .

Bu jonajon vatanda ,
Yashamoq o'zi zavqda .
Sevaman jon bor tanda ,
O'zing mening posbonim.

OTA

Oilaga bosh-u qosh ,
Hammadan ham ulug'siz .
Onamga umr yo'ldosh ,
Mening otajonimsiz .
Kecha- kunduz ishlarsiz ,
Bizlarni boqish uchun .
Ota mehrin berarsiz ,
Mehribon bo'lish uchun .

ONA TILIM

Yurtim obod biram ozoda ,
Xalqimizda sobitiroda .
Tinchlik hokim ona diyorda ,
Yoshlarida ilm ziyoda .
Ona tilim borki dunyoda .

Ravnaq topdi ona tilimiz ,
Yuksalmoqda bizning ilmimiz .
Yo'li yorug' o'zbek elimiz ,
Esaverar hurlik shabboda ,
Ona tilim borki dunyoda .

Har daqiqa ilhom dilimda ,
Ona tilim mangu elimda .
Hurlik taskin berar ko'nglimga ,
Tinchlik qushi uchar osmonda .
Ona tilim borki dunyoda .

KUCH ADOLATDA

Hamon bo'lsa kuch adolatda ,
Inson yashar baxt saodatda
Yodingda tut buni ey inson ,
Dunyo qiziq ajoyibotda .

Lek qolmaylik hech malomatda ,
Kuch bilinar bir mahoratda .
Albatta biz bilamiz buni ,
Dunyo qiziq ajoyibotda .

Hayot o'zi bir sinoatda ,
Insonlar hech bo'lmasin sodda .
Ammo esda saqlaylik buni ,
Dunyo qiziq ajoyibotda .

Lekin bo'lsa kuch adolatda ,
Vatanimiz tinch farog'atda .
Unutmagin sen aynan shuni ,
Dunyo qiziq ajoyibotda .

ZAVQLI QUSHCHALAR

Zavqlanib uchisharlar,
Osmon uzra qushchalar.
Dunyoni kezisharlar,
Go'zal zavqli qushchalar.

Goh osmonni to'ldirib,
Ucharsiz siz zo'r bo'lib.
Dilni zavqqa ko'ndirib,
Go'zal zavqli qushchalar.

Sizlar juda go'zalsiz,
Tabiatga azalsiz.
Kitoblarga masalsiz,
Go'zal zavqli qushchalar.

8-MART KUNI

Keldi go'zal bahor ham,
Barcha xursand bugun ham.
Sakkizinchi mart bugun,
Ulug', muqaddas bayram.

Kirib keldi bayram ham,
Unutildi qayg'u g'am.
Hamma xursand, baxtiyor,
Har bir yoshlar barkamol.

Hamma xursanddir yana,
Bugun bayram tantana.
Sakkizinchi mart kuni,
Baxtiyor barcha ona.

2013/132 A 10175	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
------------------------	--

MEHRIBONSIZ ONAJONLAR

Oq yuvib oq taragansiz,
Mehr birla qaragansiz.
Og'ir kunda yaragansiz,
Mehribonsiz onajonlar.

Tinimsiz kecha kunduz,
Beshikda tebratdingiz.
Dilxush alla aytdingiz,
Mehribonsiz onajonlar.

Siz oh biram mehrli,
Qo'shiqlari sehri.
Farzandlari zehni,
Mehribonsiz onajonlar.

OTALARNI ULUG'LANG

Ota eng ulug' inson,
Otalarni ulug'lang.
Oilamizda posbon,
Bayramini qutlug'lang.

Otamiz kecha-kunduz,
Ter to'kadi biz uchun.
Arziydi qilsak ko'z-ko'z,
Ko'rsatib ular kuchin.

Yaxshi otadan doim,
Farzandlar olgan ibrat.
Ular sharafim shonim,
Ziyodadir muhabbat.

Beradi o'z mehrini,
Mehrin berib yashaydi.
Yaxshi farzand otani,
Har onda olqishlaydi.

MUNDARIJA

Vatan.....	3
Orzu.....	3
Ozodalik.....	4
Do`st.....	4
Inson.....	5
Tabiat.....	6
Qish.....	6
Yomg`ir.....	7
Bahor.....	7
Botir askar.....	8
O`zbekiston.....	8
O`t o`chiruvchi.....	8
Yoz.....	9
O`zbekiston bayrog`i.....	10
Ustoz.....	10
Kitobga ta`rif.....	11
Qushchalar.....	13
Zararli odatlar.....	13
Ota.....	15
Ona tilim.....	15
Kuch adolatda.....	16
Zavqli qushchalar.....	17
8-mart kuni.....	17
Mehribonsiz onajonlar.....	22
Otalarni ulug`lang.....	22

1800 copy.

ADABIY-BADIIY NASHR

Javohir SATTOROV

OPPOQ ORZULAR

She'rlar

Muharrir:	Y.Ziyodov.
Texnik muharrir:	Ch.Rahmonov.
Musahhih:	Y.Ziyodov.
Sahifalovchi:	Sh.Xolmurodova.
Badiiy bezakchi:	Sh.Alisher qizi.

Nashriyot litsenziyasi AI 139, 27.04.2009 yil. Terishga 11.07.2013-yilda berildi. Bosishga 19.08.2013 yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108^{1/32}. BalticaTAD garniturası. Ofset qog'ozı. Ofset usulda chop etildi. Shartli bosma tabog'i 1,26. Nashr bosma tabog'i 0,57. 84-2013-shartnoma. 51-buyrtma. 100 nusxada. 20 bet. Erkin narxda.

«Nasaf» nashriyoti, 180118, Qarshi shahri,
Mustaqillik shohko'chasi, 22-uy.

«Qarshipoligrafnashr» MCHJda chop etildi.
180118, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko'chasi,
22-uy.